

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

«O'ZBEK FILOLOGIYASI» KAFEDRASI

**«Hamid Olimjon she'riyatida lug'aviy birliklarning uslubiy
qo'llanilishi»**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O'zbek filologiyasi» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi
Rozumetova Sevara

ILMIY RAHBAR:
f.f.n., dots. Bobojonov F.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
__-sonli bayonnomasi «__» may 2013 yil

NUKUS- 2013

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOIYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Bobojonov F.

DAK Q A R O R I:

Rozumetova Sevaraning «Hamid Olimjon she'riyatida lug'aviy birliklarning uslubiy qo'llanilishi» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » () bahosi qo'yilsin.

DAK kotibi:

N.Qilichev

«_____»_____ 2013 yil

HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA LUG'AVIY BIRLIKLARNING USLUBIY QO'LLANILISHI

*«Biz adabiyotning etuk kompazitsiyasiga
ega bo'lmagan etuk asarlarini bilamiz.
Ammo yomon til bilan yozilgan yaxshi asar
bo'lishi mumkin emas» (K.Fedin).*

REJA:

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi

Mavzuning o'rganilishi

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Tadqiqot obekti va predmeti.

Tadqiqotning tarkibiy qismlari.

I. BOB. HAMID OLIMJON ASARLARINING LUG'AVIY TARKIBI

1. H.Olimjonning tili va uslubi
2. Keng istemoldagi so'zlarning uslubiy qo'llanilishi
3. Istemol doirasi chegaralangan so'zlarning uslubiy qo'llanilishi

II.BOB. HAMID OLIMJON POETIK ASARLARIDA SO'ZLARNING SHAKL VA MANO MUNOSABATLARIGA KO'RA TURLARI.

1. Omonimlarning uslubiy qo'llanilishi
2. Sinonimlarning uslubiy qo'llanilishi
3. Antonimlarni uslubiy qo'llanilishi

Umumiy xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyotimizda baxt va shodlik kuychisi bo'lib, o'zbek xalqi nomidan so'zlagan shoir H.Olimjon tilga ham katta etibor berdi. Chunonchi adabiyotning birinchi quroli til ifoda vositasi so'z hisoblanadi. So'z esa barcha faktlar, va barcha fikrlarning libosidir. Ajoyib libos. Aniqrog'i, tanlab-tanlab ishlatilagan so'zlarsiz fikrning tasirchanligini, o'lik faktlarning kitobxonga badiiy zavq bag'ishlayolmasligini qat'iy his qilgan shoir davr taqozosida so'z qo'llash ibora ishlatishda o'ziga xos maktab yaratdi. Masalan, Shoirning «O'zbekiston» she'rida keng istemoldagi so'zlar sirasiga kiruvchi bulbul, qurt, ari, qush kabilar H.Olimjonning ijodiy laboratoriyasida badiiy uslubda ko'chma manoli so'z qo'llashning ajoyib namunasi. Takidlash joizki,

Bunda bulbul kitob o'qiydi

Bunda qurtlar ipak to'qiydi.

(TA 212).

Misralardagi fe'l, metaforalar, bizning fikrimizcha, H.Olimjonga, uning so'z qo'llash maktabiga mansubdir.

Fikrimizcha bu maktabning siri turli uslubiy maqsadlarda badiiy matnda so'z qo'llash sanatidir. O'zbek adabiy tili rivojining eng murakkab davri hisoblangan 20-30-yillar, shuningdek, 1941-1945 yillar uchun tarixiy davr koloritini xalqimiz ruhiyatining badiiy obrazini yaratishda H.Olimjonning so'zdan ***ham qurol, ham bo'yoq, ham soz*** sifatida foydalanilgan misralari har jihatdan mufassal va mukammal o'rganilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarga asosdir. Xususan, hozirgi kunda istiqlol g'oyalariga suyangan holda shoir ijodining leksik tadqiqi o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir.

Jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar tilning lug'at tarkibida namoyon bo'lishi qonun hamdir. Ayni manoda o'zbek tili lug'atiga kirib kelgan *aeroplan, kazarma, narkompros, oq injener, kolxoz* kabi qator so'zlardan shoir davr taqozosida foydalangani tabiiydir. Masalan,

1.Karvonlarni qutbga boshlar.

Ko'kda uchgan aeroplanlar... (TA 347)

2. Biz endi kazarma qo'ynida,
Uchinchi kechani kutamiz, (TA 306)

3. Kecha,

Dushman

Narkompros

bo'lmalarida (TA 72)

Xoin,

Sotqin

Yumushlarga

Signallar urgan (TA 72)

4. Kecha...

Olchoq texnik,

Oq injener:

Mashinalar,

Matorlarini

Buzib tashlagan: (TA 72)

Misollaridagi **aeroplan**-samalyot, **kazarma**-biror jamoatning mavsumiy yotoqxonasi, **oq injener**-ichki dushmanlar vakili, **signallar urgan**-xabar bergan, **norkopros**-xalq maorifi komissariati (hozirgi kunda xalq talimi vazirligi), kolxoz-jamoa xo'jaligi kabilar tarixiy davr ruhini haqqoniy tasvirlash maqsadida qo'llangan.

Darhaqiqat o'zbek adabiy tili leksikasining 20-30-yillar taraqqiriyotida ham qat'iy lug'aviy meyorlar talabiga qat'iy rioya qilmaganligi, shuningdek, har bir adibning so'z qo'llashdagi individual uslubi bois ayrim so'zlarda variandorlik mavjud edi: *pofessor-mudarris*, *talaba-student*, *quloq-mushtumzor*, *udarnik-zarbdor* kabilar.

Shoir, H.Olimjon lirikasida ham ayni holat o'z aksini topgan.

Mushtumzo'rni

Barbod qilgan

Nepman, quloq mushtumzo'r-eskirgan leksik birlik tarixiy so'zlar; Norkompros arxaik so'z; injener, kolxoz kabilar esa o'z davrida olinma so'z-neologizm; hozirgi kunda ular muhandis, jamoa xo'jaligi kabilar.

Keltirilgan misollardagi ajratilgan lug'aviy birikmalarni o'zbek tili leksikasining 20-30-yillar o'ziga xos xususiyatlarini hozirgi kungi taraqqiyotiga qiyosan tahlil qilib, hukm chiqarish-ham ilmiy, ham amaliy, nihoyat marifiy ahamiyatga molikdir:

Mavzuning o'rganilishi. Mayjud tadqiqotlar tavsifidan ma'lum bo'lishcha, H.Olimjon asarlari asosan uch yo'nalishda tahlil tavsif etilgan:

1. Adabiyotshunoslik yo'nalishida chuqur o'rganilgan. Adabiyotshunos olimlar, munaqqidlar: H.Yoqubov, S. Azimov, I. Sultonov, S.Mamajanov, N.Shukurov, N. Karimovlar nomidan adabiy portretlar ilmiy maqolalar, monografiyalar hajmida tahlil va tavsif qilinadi.

Umum talim o'rta maktablari dasturi taqozosida Hamid Olimjon ijodini maktabda o'rgatish masalasiga bag'ishlangan bir qator, ilmiy-metodik maqolalarda usuliy yo'nalishda tavsiflanib, adabiyot o'qituvchilariga shoirning bir necha asarlarini o'qitish xususida metodik tavsiyalar berilgan. Masalan,

1. Omilkor o'qituvchilar: A.Bobomurodov, M.Ismatullaevlarning maqolalari "Semrug" poemasini maktabda o'rganishida ko'rsatmalik, poema matnini sharhlab o'qish (Savet maktabi) jurnali 1968-yil 1-son, 15-17-b., 1978, 9-son 48-49-b. muammosiga bag'ishlangan.

2. M.Mamurovning shoirning "Oygul bilan Baxtiyor" poemasining badiiy xususiyatlari va tilini o'rganish maqolasida ham ko'rgazmalilikning ahamiyati takidlanadi. Maqola muallifi 5ta jadvalda xalq og'zaki ijodiga xos ananaviy boshlamalar, iboralar, mubolag'a, metafora kabi tasviriy ifodalar hamda omonim, sinonim va antonim so'zlarga namunalar beradi (Sovet maktabi jurnali 1972, 5-son, 37-38).

3.B.O'ranovning "Qahramonlik haqida ballada" maqolasida balladani maktabda o'rgatishga Tursun obrazi tavsifi hamda asarning badiiy xususiyatlarini aniqlashga doir o'quv topshiriqlarini bajarishda tarqatma qog'ozlarga bitilgan savol samaradorligi xususida fikr mulohazalar bayon qilinadi. Darhaqiqat, muallifning Tursun obrazi dinamikasini, yani uning qo'rqqoqlik, botirlik, fidokorligini tavsiflashga davad qiluvchi. Ikkinchi kartochkada namunalar hozirgi kun maktab talimida ham samarador tavsiyadir. (Sovet maktabi) jurnali 1989-y. 11-son 14-46-b.

Namunani aynan keltiramiz:

Qo'rqqoqlik

"o'lib ketsam bo'lmaydi

qochganim yaxshi tezroq....."

Botirlik.

U nayza sanchganda

Sapchiydi olg'a tamon,

O'lim nima bilmaydi.

Fidokorlik.

U juda xursand bo'lib,

Tuproqqa qo'yadi bosh.

Boshlari qip-qizil qon.

Go'yo botuvchi quyosh.

Shuningdek, mazkur maqolada balladaning badiiy vositalari: murojaat, sifatlash, mubolag'a, jonlantirish, folklorga xoslik (ko'rsatilgan jurnal 16-bet) kabilarga doir to'rtinchi kartochkasi topshiriqlari ham o'qituvchilar amaliyotida sinovdan o'tgan o'zini oqlagan samarali o'quv topshiriqlaridir. Zero ayni tavsiya o'quvchilarning badiiy matn, lisoniy tahlil mustaqil aniqlash malakasini takomillashtiradi.

4.Dots.I.Sodonqulov, omilkor o'qituvchi M.Turdaevaning maqolalari H.Olimjonning "Zaynab va Omon" poemasini o'rganishga bag'ishlangan. Bulardan I.Suvonqulov "Poemaning muhim qirralarini o'rganish" degan

maqolasida “Zaynab, Omon va Sobir” obrazlarni tavsiflaydi. M.Turdaeva “Dostonchiligimiz durdonalaridan biri” maqolasida poemaning tilini o’rganish xususida metodik tavsiyalar beradi. O’qituvchilar amaliyotiga “Ko’zi ko’r” “Qulog’i kar” “Bergan tuziga rozi bo’lish” kabi qator iboralar, shuningdek, mubolag’a kabi tasviriy vositalar ustida ishlashning samarador ish usuli ekanligini tavsiya qiladi (Sovet maktabi jurnali, 1983, №9, 35-bet; 1980, 2-son 23-24-bet).

5.Filologiya fanlari doktori, prof. H.Nematovning “Shoir kechinmalarining” “go’zal durdonasi” maqolasida “O’rik gullaganda” she’ri adabiyotshunoslik yo’nalishida tahlil qilinadi. Muallif lirik qahramon kechinmalarining kitobxonga nihoyatda kuchli tasirini takidlaydi. (Sovet maktabi jurnali 1989. 2-son 22-23-b).

6. Olima Saodat Boboeva “Ulkan adib poeziyasining leksik xususiyatlari” degan maqolasida shoir poeziyasining ayrim leksik xususiyatlari, tasviriy vositalari: mubolag’a, metafora kabilar haqida ma’lumot beradi (Sovet maktabi jurnali 1987-y. 1-son, 22-24-b). Mazkur maqolada “O’rik gullaganda” “O’zbekiston” “Roksananing ko’z yoshlari” lisoniy ko’rinishda tahlil qilingan.

S.Boboev manodosh so’zlar: ***bahmal, kimxob, mubolag’a: xatto, daryodan chiqar edi chang ko’z yoshi buloq*** kabi tasviriy vositalarga tirik misollar keldiradikim, bular, shubhasiz, badiiy matnning lisoniy tahlili bilan shug’ullanuvchilar maktabda badiiy matnni sharhlab o’rgatuvchilar uchun eng muhim namuna bo’la oladi.

“O’zbek tilining grammatik masalalari to’plamida X.Donyorov, S.Boboevalarning H.Olimjon asarlarida sinonim so’zlar” maqolasida (Samarqand, 1981. 26-38-b) Shoir asarlarida manodosh so’zlarning uslubiy qo’llanilishi xususida ma’lumotlar berilgan. “O’zbek tilining grammatik qurilishi va dialetologiyasi masalalari” to’plamida prof. Qo’ng’urovning “H.Olimjon asarlari tilini o’rganish bo’yicha materiallar” maqolasida metafora, metonimiya, sinekdoxa, sifatlash kabilar tahlil qilinadi. (Samarqand, 1971. 22-41-b). Shuningdek, S.Boboevaning “Ulkan adib poeziyasining leksik xususiyatlari” maqolasi (S.M. 1978. 1-son, 22-24-b) hamda “ H.Olimjon poeziyasining leksik

xususiyatlari ” deb nomlangan risolasi adib asrlari leksikasini tilshunoslik yoʻnalishiga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlardandir.

Badiiy metodik lisoniy tahlilga bagʻishlangan prof E.Qilichevning “Badiiy tasvirning leksik vositalari” (Toshkent “Fan” 1982), A.Shomahmudov va boshqalar muallifdoshligidagi «Oʻzbek tili stilistikasi» (Toshkent “Oʻqituvchi” 1983) darsligidagi, shuningdek, Sh.Lonisovning “Badiiy matn va lisoniy tahlil” deb nomlangan qoʻllanmasi (Toshkent “Oʻqituvchi” 1995)da ham H. Olimjon asrlari tiliga daxldor maʼlumotlar bor.

H. Olimjonning asrlari leksikasini oʻrganishga daxldor metodik yoʻnalishdagi masalalarning tahlili adibning mukammal asarlar toʻplami oʻn jildligining asosan I-II jildlaridan toʻplangan misollarimiz tasnifidan tubandagilar maʼlum boʻldi.

Adabiyotimizda baxt va bahor kuychisi boʻlmish H.Olimjon asarlarining tili gʻoyat jozibador, yoqimli soʻzlari oʻquvchini oʻziga tortadi, uni hayajonlantiradi. Buning sababi faktlar tahlildan maʼlum boʻlishicha, birinchidan, *oʻrik, qurgʻur sharmanda, dard, qurt, ari, quvosh, paxta, juvon, pazanda* kabi sodda keng istemoldagi; *buyuk fojia, ikki qat, zulm qamchisi, badbaxt sovgʻa, sariq bobo* kabi birikmali keng istemaoldagi soʻzlarning matnda tasviriy ifoda sifatida qoʻllanilishidir.

Ikkinchidan, *bosh, koʻz, yoʻl, qanot* kabi koʻp manoli *kun, yosh, soz, yot* kabi omonimlarning: *hamsoya-qoʻshni jonli-tirik vap-tetik, oʻynardi-raqs etardi* kabi sinonimlarning: *yolgʻon-chin, achchiq-shirin, yangi-eski, er-koʻk* kabi antonimlarning sanatkorona turli uslubiy maqsadlarda ishlatganligidir.

Uchinchidan, adibning adabiy til va xalq soʻzlashuvi tili imkoniyatlaridan oʻrinli va mohirona foydalanganidir:

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Maʼlumki, yozuvchining gʻoyasi estetik jihati oʻquvchiga soʻz orqali etkaziladi, zero, soʻz barcha fikrlarimizning libosidir. Ayni maqsadda shoir H.Olimjon 1941-1945-yillar ruhini soʻz orqali ifodalashda *vintovka, avtomat, bomba, rota, ataka, front, okop, poezd, vokzal* singari qoʻllanish doirasi chegaralangan leksik qatlamga mansub soʻzlardan

ham, aniqrog'i, harbiy terminologiya sirasidagi atamlardan ham sanatkorona foydalangan. Shubhasiz, bular ham davr ruhini haqqoniy aks ettirish, tilning soddaligi uslubning ravonligini taminlovchi ifoda-tasvir vositalarini bajargan.

Misollar,

1. *Olay desang fashistdan qasos,*

Qo'linga ol qilich va olmos

Yag'riningga yintovkani os!

(TA 225)

2. *Kanal qazgan qo'llarga*

Avtomat miltiq oldim...

(TA 255)

3. *Okonlardan yov chiqadi*

Och bo'riday ulishib...

(TA 230)

4. *Rota hujumga tayyor*

Buyruq kutadi faqat...

(Ta 286)

Shuningdek keng istemol so'zlar sirasiga kiradigan, "qora", "oq", "olov" kabi qator so'zlarning "**qora turmush**", "**qora kun**", "**qora taqdir**", "**qora tun**" kabi yuzlab birikmalaridagi semantik qirralarini aniqlash maqsadida "Badiiy matnning lingivistik tahlili", "Badiiy matnni sharhlab o'qish" kabi oliy o'quv yurtlari kurslarida va umumtalim maktablari dasturi talabidagi ayrim matnlarni sharhlab o'qish mashg'ulotlarida H.Olimjonning so'z qo'llash mahoratini uqtirishi bilan bir qatorda, bularning talablar va maktab o'quvchilari uchun ham benihoya tarbiyaviy ahamiyati bor.

Masaln:

Eshigingda asrandi bo'lgan

Qora tunlar xotirda qolur.

(TA 407)

Shu fakt ham diqqatga sazovorki, H.Olimjon she'rlarida **bosh, ko'z, qanot** kabi ko'p manoli so'zlar: "kun", "yosh", Kabi ko'plab shakldosh so'zlar: "Uy", "joy", "yotoq", "yurak", "ko'krak", "suyak" kabi manodosh so'zlar "yolg'on", "chin" kabi juda ko'p zid manoli so'zlar: "bosh oqqan yaqqa ketmoq", "Iniga ilon kirgan chumchuqday" kabi xalqona frazeologik iboralar "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining "so'zshunoslik va frazeologiya" bo'limlaridan o'qiladigan maruzalar, tashkil qilinadigan amaliy mashg'ulotlar uchun juda zarur lisoniy material hisoblanadi. Bu bir. Ikkinchidan, bo'lg'usi o'qituvchilarni maktab dasturi hajmida ona tili darslari uchun matn saralashga o'rganadi. Ayni holat "O'zbek adabiy tilining rivojida H.Olimjonning o'rne" mavzusidagi malakaviy ishning hozirgi kun talablari amaliy ahamiyati hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimizdan ko'zlangan asosiy maqsad Hamid Olimjon she'riyatining lug'aviy tarkibini aniqlab, lug'aviy birliklarning uslubiy qo'llanilishini baholashdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda olimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- H.Olimjon she'riyatining o'rganilish tarixini baholash;
- H.Olimjon she'riyatining lug'aviy tarkibini aniqlash;
- lug'aviy birliklarni istemol doirasiga ko'ra tasnif qilish;
- lug'aviy birliklarni shakl va mano munosabatiga ko'ra tasnif qilish;
- H.Olimjonning omonimlardan foydalanish mahoratini aniqlash;
- H.Olimjonning sinonimlardan foydalanish mahoratini aniqlash;
- H.Olimjonning antonimlardan foydalanish mahoratini aniqlash;
- shoirning lug'aviy birliklardan uslubiy foydalanish mahoratini belgilash;
- o'rganilgan materiallar bo'yicha umumiy xulosalarni bayon qilish.

Tadqiqot obekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishimizda Hamid Olimjonning 10 jildlik mukammal asarlar to'plamini asosiy tadqiqot obekti sifatida belgiladik (T.1982.). Ishda keltirilgan misollar TA (tanlangan asarlar) shaklida qisqartmalarda berildi.

Tadqiqotning tarkibiy qismlari. Malakaviy ishimiz tarkiban kirish, ikki bobdan iborat asosiy qism, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topadi.

“Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, H.Olimjon. asarlarining alabiyotshunoslik, tilshunoslik va metodik yo'nalishlarda o'rganilganligi, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obekti va predmeti hamda ishning tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

“Hamid olimjon asarlarining lug'aviy tarkibi” deb nomlangan birinchi bobda keng istemoldagi so'zlar va qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zlarning uslubiy qo'llanilishi faktik materiallar tahlili asosida ilmiy nazariy manbalardaga suyanan holda tavsiflandi, sharhlandi.

H.Olimjon poetik asarlarida so'zlarning shakl va mano munosabatlariga ko'ra turlari deb nomlangan ikkinchi bobda omonimlar, sinonimlar va antonimlarning uslubiy qo'llanishi sharhlandi.

Tahlil va tavsiflarimizdan kelib chiqqan holda, ishning nihoyasida mufassal umumiy xulosalar berildi, adabiyotlar ro'yxati ilova qilindi.

I. BOB. HAMID OLIMJON ASARLARINING LUG'AVIY TARKIBI

H.Olimjonning tili va uslubi

Takidlash joizki, o'zbek adabiy tili rivojining eng murakkab davri bo'lgan 20-30-yillar til va uslubining soddaligi, ravonligi muammosida H.Olimjonning alohida o'rni bor. Bu 1934-yil "Adabiyotimizning tikka ko'tarilgan davri", 1938-y "Alpomish" haqida yozgan ilmiy maqolalarida tilning xalqchiligi, soddaligi, uslubning ravonligiga amal qilish to'g'risida shoirning "Ayniqsa poeziyada badiiy soddalik va til soddaligi uchun kurashish ishni kuchaytirish lozim" degan fikri badiiy matnning lisoniy xususiyatlarini tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Adib shaxsiy ijodida badiiy soddalik til soddaligi, uslubning ravonligi estetik printspga qat'iy amal qilgan. Ayni maqsadda o'z xalqining boyligi, hisoblangan lug'at tarkibiga, lug'at tarkibining bir qismi xisoblangan xalq og'zaki ijodi durdonalaridan, hatto jonli so'zlashuv tili unsurlaridan ham sanatkorona foydalangan.

Shubhasiz, lug'at tarkibini harakatga keltiruvchi grammatik qonuniyatlarga, uning eng kichik ko'rsatkichlari talabiga amal qilish ham adib asarlarida xalq og'zaki ijodiga xos ravon uslub vositalarining biri sifatida qo'llanilgan. Masalan, "Shodlikni kuylaganimning sababi" nomli 9 baytdan iborat she'rining to'rta baytida *o'qib chiqdi, oldim, yig'lab qichqirdim, o'rnidan turdi, tishlamadim, ko'rsatdi, so'radim, keltirdi* kabi 8 ta fe'l kesim uchta maqsad taqozosida qo'llanilgan:

A)Badiiy, g'oyat sodda, istemol doirasi chegaralanmagan so'zlardan ham foydalanishi:

B)Bunday so'zlarni ohangdoshligini taminlovchi zarur grammatik qo'shimchalar bilan shakllantirish (misollar I-II shaxs aniq o'tgan zamon fe'li);

V)Misollar egalarga mos holda hikoya uslubida tuzilgan:

Shoirlarni ko'p o'qib chiqdim

Bilmaganim juda qoldi kam

O'qib chiqdim chuvaldi fikrim

*Ko'raverib ham oshda g'am,
Fuzuliyini oldim qo'limga
Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi,
Va Navoiy tushib yo'limga,
Faryod bilan o'rnidan turdi...*

(TA.207)

H.Olimjon asar voqeasi tasvirlanayotgan davr uchun tanlagan barcha mavzularida til birliklarida o'zbek xalqining milliy ruhiyatini ko'rsata bilgan. Ayni maqsadda ham folklor uslubiga xos so'z birikmalari va maqolalardan leksik uslubiy tasvir vositasi, badiiy obraz yaratishning muhim omillaridan biri sifatida foydalangan.

*Tushar doim esimga o'zbek maqolidir bu
Kim oldim musht ko'tarsa, albatta qo'rqqoq keldi
Ko'kda parvoz etsa lochin erga kirgay zog'lar
Kishnagan ot o'tsa cho'ldan qo'zg'olur tuproqlar
Qonga to'lgay jonga botir kirsa so'lu sog'lar
(G'alaba qo'shig'i 1 t 245-270-b). (TA 227)*

H.Olimjon bu kabi milliy iboralar, lug'at tarkibining katta bir qismini tashkil qiluvchi bo'ri, she'r, tulki, ilon, arslon, ko'rshapalak kabi hayvon nomlari atamalaridan ham tilning xalqchiligini ko'rsatish maqsadida leksik-semantik ifoda tasvir vositalaridan biri sifatida foydalangan. Fikrimizcha bular shoirning xalq og'zaki ijodi, tiliga qiziqqonligi o'z xalqining milliy xarakterini, ruhiyatini ko'rsatishga bo'lgan intilishi samarasidir.

Chunki sanalgan til birliklari ham davr ruhiyatini ko'rsatish, ham milliy koloritni obrazli tasirchan ifodalash funktsiyasini bajargan fikrlardir. Masalan. 1941-1945 y, voqealari tasviri uchun tubandagilar g'oyat xarakterlidir.

*Kunduzin tun deb o'ylab sarharga keldi o'g'ri
Ko'rshapalak oxiri otashga keldi to'g'ri
Gitlarning ichida qarg'ashini bilardik
Er tagida ilonning izg'ishini bilardik*

O'rmona bo'ri bilan she'r olishar chog'i keldi.

Hujum chog'i chekilma hech

Tulkini bo'ri bo'lib bos

Qochsin desang go'yo qoramol

Qo'linga qurol ol!

Uning qonli tuyog'idan toza bo'lsin deb Vatan.

(1 t. 240-245, 247-249 b).

H.Olimjon badiiy uslubida, shuningdek, tilimizning so'zshunoslik fanida keng istemoldagi adabiy so'zlardan ko'chma manoli tasirchan so'z birikmalarini tuzgan: ***qora tun, qop-qora tun, qora taqdir, qora dog', qora tong, olov dudoq, olov ko'z, nafasidan olov purkamoq*** kabilar. Bular, so'zsiz faqat H.Olimjon tili va uslubiga xos tasviriyy vositalar bo'lib, adibning tilimiz leksikologiyasidagi alohida o'rnini ko'rsatuvchi dalildir:

Fashizm odamzod uchun qora dog' keldi.

Baxt axtarar qora taqdir

Hisob emas hujum chog'i quyosh kabi qizmasam

Nafasimdan olov purkab yov safini buzmasam.

Til va uslubda H.Olimjonning alohida mavqeini belgilovchi yana bir amal shoir tilining omonimik jihatdan aniqligini, o'tkirligini taminlash kabi turli uslubiy maqsadlarda ***«diqqatini mixday qoqib chinlamoq» «tishni-tishga qo'ymoq», «iniga ilon kirgan chumchuqday»*** kabi tayyor iboralarni, ***diqqat ko'zi, zulm ko'lankasi*** kabi qator ijodiy iboralarni she'riy misralar mazmuni g'oyasiga singdirib yuborgan.

Ana o'sha kunga

Tishingni qo'y tishiga

Ona ham chirqirar tinmasdan

Iniga ilon kirgan chumchuq misoli

(1t 249, 289, b.)

Ana shularga o'xshash tasviriyy vositalar hisobiga H.Olimjon badiiy matnda so'z va ibora qo'llashda o'ziga xos maktab yaratdi.

Bunday tasviriy vositalar mashhur adabiyotshunos olim M.Qo'shchonovning «O'lmas so'z» maqolasida («Guliston» jurnali 1979 y. 12-son, 2-b) alohida takidlashicha, istedod darajalari har xil bo'lgan shoirlar asarlarida uchrab tursada, ulardan H.Olimjon asarlaridagi kabi tasirchanlik sezilmaydi. Demak so'z qo'llash, tasviriy vositalardan foydalanib, o'ziga xos va mos uslub va maktab yaratgan shoirning o'zbek adabiy tili rivojidadagi beqiyos o'rni, tilning soddaligi, uslubning ravonligiga qo'shgan ulkan hissasidir.

Xullas, H.Olimjon o'zbek milliy tilining grammatik, qonuniyatlarini, lug'at tarkibini mufassal va chuqur bilgan xassos, tilga usta shoirdir. Zero so'zlar adib uchun ham qurol, ham bo'yoq, ham tovush, ham soz bo'lib xizmat qiladi.

Nihoyat ular sanatkorona mahorat bilan ishlatilgach, buyuk mano kasb etgan, **«...Yomon til bilan yozilagan yaxshi asar bo'lishi mumkin emas»** (K.Fedin). Badiiy asar tili masalasida mazkur aksiomaga shoir H.Olimjon etuk adabiyotshunos, munaqqid, tilshunos sifatida qat'iy amal qildi. Uni o'z ijodi va hamkasblari ijodiga bo'lgan munosabati bilan amalda sinab berdi.

Shoir Tuyg'unning «Vaxsh» she'riy to'plamiga yozgan taqrizida «Sher» so'zining oliy darajada tashkil etilishini talab qildi. So'zlarning oliy tashkili shoir ifoda qilmoqchi bo'lgan g'oyani mukammal ravishda barchaga xizmat qilmog'i kerak so'zlarning tashkili manoning yaqqol chuqur, ayni zamonda, sodda bo'lib chiqishiga yordam qilsin. Yo'qsa har bir chiroyli so'z she'r bo'lib bermaydi. Shoir so'zlarni tanlab olish, so'zlarning manosi, psixologiyasini (rangba-rang mano turlarini demoqchi) chuqur anglashi kerak.¹

H.Olimjon poeziyasini o'qir ekansiz, shoirning shu estetik printsipiga har tomonlama amal qilganining guvohi bo'lasiz.

Masalan:

***Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so'ylar soz.
Men yurganda bog'larga to'lar
Faqat baxt maqtagan ovoz.***

¹ X.Olimjon Вахш мукаммал асарлар тўплами 10 жилдлик IV жилд 1982. 299-б.

(TA. 186).

Mazkur matnda «so'yla» leksemasi «so'zla»ga nisbatan kuchli hishayajon va jozibadorlikka ega. Shu bois adib «O'rik gullaganda» she'rida «so'zla» leksikasining folklorga xos oddiy so'zlashuvda ham qo'llanadigan «so'yla» variantidan o'rinli foydalanganligi tabiiydir.

Ayonki, shoir keng istemoldagi so'zlardan ham muayyan uslubiy maqsadlarda foydalangan. Shu maqsadda H.Olimjon so'zning o'zida bor bo'lgan imkoniyatlaridan ham, shu so'zning boshqa so'zlar bilan bo'lgan munosabatida paydo bo'ladigan uslubiy imkoniyatlarini ham etiborga olgan. Shu bois uning she'rlarida keng istemoldagi so'zlar ham poetik mazmun kasb etgan: «qora» «oq» so'zlarining «kun», «tong», «ko'mir», «turmush» kabi yuzlab so'zlar bilan birikkan holda rang-barang manolarda ishlatilishi yuqoridagi fikrimizning dalilidir

.....*Bir qora yov o'tgan o'rmonlaringda*

*Ko'mirdan ham **qora tong**larni ko'rdim.* (TA 258)

.....***Oq injener**... matorlarni buzib tashlagan* (TA72)

.....***Qora turmush** solardi changal*

Qismatni etar edi his.

***Qora tunlar** xotirda qolur*

(TA 407)

Bu misollar shoir uslubida badiiy matnning estetik tasirchanligi, obrazlilik kabi ifoda tasviriy vosita vazifasini bajarganki, bular H.Olimjonning o'z tasviri bilan aytganda, she'rdagi har qanday chiroyli so'zlar uyali emas, balki ifodalamoqchi g'oyani, tasirchan badiiylikni taminlovchi keng istemoldagi so'zlar qatlamidan tanlab-tanlab olingan leksik vositalardir.

O'zbek tilshunosligiga oid ilmiy tadqiqotlarda o'zbek tili lug'ati tarkibida mavjud so'zlar doirasiga ko'ra qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksik va qo'llanilish doirasi chegaralangan leksik guruhlariga ajratiladi.²

E.Azimovich Begmatov o'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlarni o'zbek tilidagi keng istemol so'zlar professional leksika, dialektal so'zlar, ilmiy terminologiya, jargonlar, adabiy va dialektal frazeologiya, atoqli otlar kabi 8ta guruhga ajratgan. Olimning monografiyasida tavsiflangan o'zbek tilidagi keng istemol so'zlar 26ta tematik tavsifda tahlil qilinadi.³

H.Olimjon badiiy matnning leksik vositalari bo'lgan o'zbek tili lug'ati tarkibidagi keng istemol so'zlardan ham, istemol doirasi funktsional chegaralangan so'zlardan ham, badiiy matnning tasviriy vositalari sifatida turli stilistik maqsadlarda sanatkorona foydalangan. Bular: *gul, sharmanda, dard, ari, juvon, pazzanda, bosh, ko'z, kun, achchiq, shirin* kabi keng istemoldagi; **yo'qsil, quloq, xon** kabi istemol doirasi funktsional chegaralangan arxoizm va istorizmlardir.

Ishimizning mazkur bo'limida sanalgan leksik vositalardan keng istemoldagi so'zlar va istemol doirasi funktsional chegarlangan so'zlarning uslubiy qo'llanilish haqida fikr-mulohazalrimizni bayon qilishga intilamiz.

Keng istemoldagi so'zlarning qo'llanilishi

Keng istemoldagi so'zlar kundalik turmushda keng qo'llaniladigan, hamma uchun tushunarli, uslubiy jihatdan betaraf. H.Olimjon asarlaridagi *o'rik, oppoq, tun, kun, yulduz, sovg'a, qor, qish, qari, kuz, yo'l* kabi minglab so'zlar yoshu-qari, cho'ponu olim, xullas, hamma uchun birday tushunarli so'zlardir. Shoir bulardan obrazlilik badiiy tasviriylik kabi turli uslubiy maqsadlarda foydalangan, ularga ijod laboratoriyasida sanatkorona badiiy ishlov bergan. Shuning uchun ham adib asardari tili juda chiroyli, g'oyat yoqimli, kitobxonni maftun qiladigan, hayajonlantiradigan, badiiy zavq beradigan tildir. Bu o'rinda

2.Муҳаммаджанова Г. Истеъмол доирасига кўра ўзбек тили лексикаси. Китоб. «Ўзбек тили лексикологияси» Тошкент, «Фан», 1981-й. 11-40-б.

³ Бегимов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент. «Фан», 1985-йил. 11-16-бет.

«Bolalik kunlarimda...» «So'ylab beray Zaynab va Omon sevgisidan yana bir doston», «Derazamning oldida bir o'rik oppoq bo'lib gulladi...» «Men bir qora tunda tug'ildim...» misralarini eslash kifoyadir. Zero bu kabi minglab misralardagi aksaryat so'zlar keng istemoldagi so'zlardir. Ular o'quvchini g'oyat yoqimli musiqadek o'ziga maftun qiluvchi leksik vositadir.

Shuningdek, xalq ertaklaridagi kabi *«bor ekan-da, yo'q ekan»* jumllaridan foydalanib *«Jambil degan tomonda, juda qadim zamonda»* shaklidagi xalq og'zaki ijodiga xos boshlamalar:

«Zolim xonni yo'qotib, qayg'ularni otib murodiga etdilar» shaklidagi xalq ertaklariga xos tugallanmalar: ertaklarga xos doimiy satrlar, iboralar: *Oy deganda yuzi bor, kun deganda ko'zi bor: Qutirib qahri keldi, ilondek zahri keldi* kabilar H.Olimjon leksikasining xalqchiligini nomoyon qiluvchi badiiy matnning leksik vositalaridir.

Takidlash joizki, shoir ayrim misralarda xalq so'zlashuv tiliga xos birgina lug'aviy birlik ishlatib, unda misralardagi xalqchilik ohangdoshlikni taminlash va shular kabi uslubiy maqsadlarni nazarda tutgan.

So'ylab beray Zaynab va Omon

Sevgisidan yangi bir doston

Mening ham bir suygan gulim bor.

Mening ham bir o'z bulbulim bor.

Mening ham bir suygan gulim bor,

Mening ham bir o'z bulbulim bor...

El so'ylagan doim yomonni

Atamaydi hech bir omonni. (TA 386)

Misralaridagi so'zlashuv tiliga xos «so'zlamok», «so'ylamoq» fe'llari adabiy leksik-fonetik meyor bo'lgan «so'zlamok», «sevmoq» fe'llari o'rnida kelgan.

Shubhasiz, bu soʻzlardagi fonetik oʻzgachaliklardan shoir misralar ohangdoshligini taminlash, xalqchiligini ifodalash maqsadini nazarda tutgandir.

Bu oʻrinda yana shu fakt diqqatga sazovorki, «gul», «bulbul» soʻzlari poetik nutqda ham, oddiy nutqda ham jonsiz predmet: oʻsimlik, qush nomlarini ularning xarakterli belgi xususiyatlari oʻxshashligi amalda insonlarga koʻchirishda faol qoʻllanadigan ananaviy metaforalardir.

H.Olimjon sheʼrlarida bu usuldan ham samarali foydalangan: masalan,

Bulbul ketdi gul qoldi,

Oʻrtaga tushdi hijron,

Yigit ham sogʻindi.

Yor bagʻri loladek qon. (TA 251)

Fikrimizcha bu baytning birinchi misrasida ajratib koʻrsatilgan «bulbul» (yigit manosida) «gul» (qiz manosida) qoʻllanilib, shoirning «Zaynab va Omon poemasining qahramonlari: Zaynab va Omonlar» nutqidan keltirilgan.) «bulbul», «gul» soʻzlariga nisbatan ham nihoyatda umumlashtirilgan, tasirchan metaforalardir. Chnki, «Yaxshilik» sheʼridan keltirilgan eslatilgan misradagi «bulbul va gul» soʻzlarining 1941-1945-yillar oʻzbek yigit qizlarining umumlashgan obrazi, ularning pinhona ruhiy holati tushiniladi.

H.Olimjon asarlarida keng istemoldagi soʻzlar guruhiga mansub xalq tili boyligida ham ravon tasvir, sodda til va uslub talablari taqozosida leksik vositalar sifatida foydalangan.

Va boʻy etgan Zaynab ham ozod,

Erkin endi boshladi hayot...

Koʻzing koʻr qulogʻing kar

Qilib har kun ichganda zahar

Tole shu deb yurarmi begʻam,

Shukur qilarmiding shunga ham...

Har vadayni bir-bir izladim

Etim qoʻzi yangligʻ boʻzladim.

(TA 404)

Misollardagi *ko'zi ko'r, qulog'i kar, bo'y etgan etim qo'zi yanglig'* *bo'zlash* kabi istemoldagi so'zlar tasirchan misollarning, aniqrog'i, o'sha badiiy matnning ifoda tasvir vositasi vazifasini bajargan.

Shoir uslubining ifoda tasvir vositalari talabida so'zlashuv uslubiga xls barcha imkoniyatlardan foydlangan: so'zlashuv tiliga xos leksik vositalar so'zlashuv tilining morfologik imkoniyatlari kabi.

1. Ne voqea o'tipti

Bu ne gap, bu ne hol?

Qayoqqa ham ketipti,

Bizning musofir mehmon.

Chechak emas u aslo,

Ochilmagan bir g'uncha.

Uni uripti balo

Gul bo'lib ochilguncha

(Roksananing ko'z yoshlari TA 293. 300)

2... Daryoda yo'q jindayin tinim.

Aslo bilmas emish uyquni. (TA 343)

...Chol qolar ololmay jindayin nafas. (TA 333)

3. Kelolib to'plagan eski,

Maqsadini aylagan bayon...(TA 348)

4. Men Omonga ko'ngil bo'ruvdim,

To o'lguncha o'shani devdim. (TA 416)

Birinchi misolda –ib ravishdoshi va o'tgan zamon fe'li ko'rsatkichi –di qo'shimchasining talaffuzda jarangsizlashib, -ip -ti shaklida kelgani asosan, so'zlashuv tiliga xos fonetik morfologik xususiyatdir.

Ikkinchi misoldagi “jindayin” so'zi 10 ta leksemadan tashkil topgan: *ozgina, bir oz, picha, sal, xiyol, jindek, qitday* manodoshlar, qatorining 9-so'zi bo'lib, u adabiy tilda asosan miqdor darajaga nisbatan qo'llaniladi. (O'Z.SIL 155)

Uchinchi misoldagi “kelolib” qo’shma fe’li ham so’zlashuv tilida ko’proq qo’llaniladi. U biror harakat holatning zudlik bilan sodir bo’lishi manosini ifodalaydi.

To’rtinchi misolda ham o’zbek adabiy tilida *bergan edim* = *bergan edim*, *degan edim* = *degan edim* qolipida etakchi fe’l bilan to’liqsiz fe’lning birikuvidan hosil bo’lgan qo’shma fe’lning *beruvdim*, *devdim* shakllari so’zlashuv tili morfologik xususiyatlariga tipik misoldir.

Takidlash joizki, H.Olimjon so’zlashuv tili leksikasining barcha imkoniyatlaridan nihoyatda sanatkorona foydalangan. Ular shoir ijodida obrazlilik, tasirchanlikni taminlovchi muhim ifoda tasvir vositalari vazifasini bajargan.

Bu jihatdan tubandagi xalq iboralari xarakterlidir: “*ko’zini chirt yumib ketmoq*”, “*taqdiriga tan bermoq*”, “*tuzini halollamoq*”, “*tuzini oqlamoq*” va shu kabilar:

1-“Tishing tushgan, saqoling oppoq,

Ko’zlaringda nur ham oz

Ketarsan ko’zingni chirt yumib”... (TA 333)

2-Qiz berdi taqdirga tan,

Anorxola kulbasi-vatan.(TA 393)

3-Xayr, opa kelsang o’zinga,

Rozi bo’lgin bergan tuzinga...

Etolmadim tuzingni halol.

Choram yo’qdir, jon opa, xushqol (TA 407)

Sanatkor keng istemoldagi lug’aviy birliklar sirasida xalq tiliga xos frazeologik iboralar, maqolalardan ham turli semantik maqsadlarda mohirona foydalangan:

Kirib keldi jimgina Anor

Qovog’idan yog’ar edi qor,

Hatto qo’ng’iz o’z bolasini

Oppog’im deb bo’lar ekan shod.

Farzand guldur ona bir bo'ston,

Shuning bilan jahon guliston.

Misollarimizda “***qovog'idan qor yog'ar-jahli chiqqan, qo'ng'iz ham o'z bolasini oppog'im deydi, Farzand gul ona bo'ston***” kabi xalq tiliga xos frazeologik ibora maqqollar misollar tarkibiga singdirilib yuborganligidan ular badiiy matnning tasirchanligini taminlovchi eng muhim ifoda tasvir vositasi vazifasini bajargan.

Biz ishimizning mazkur qismida tilimizdagi keng istemoldagi so'zlarning qanday uslubiy maqsadlarga qo'llanganligiga javob tarzida ayrim namunalar keltiramiz.

1. Adib asarlarida keng istemoldagi so'zlar konkretlik, aniqlik, manoni kuchaytirishi kabi stilistik maqsadlarda xizmat qilgan.

Misollar.

Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar

Tongda aytdi hayot otini

*Va shabboda **qurg'ur** ilk sahar*

Olib ketdi gulning totini

(H.Olimjon tanlangan asarlar 1951, 185-b)⁴

Keltirilgan misollarda “o'rik” so'zining lug'aviy manosi o'simlik manosidir. “oppoq” esa belgini ortiqligini ifodalovchi so'zdir. Shoir bu so'zlarni birlikda qo'llab, ularga qo'shimcha ekspressiv stilistik mano yuklagan. Zero o'rik so'zi alohida qo'llanganda (Bir tup o'rik gulladi) manoni kuchaytirishi ekspressiv stilistik vazifani bajara olmas edi. Shuning uchun “o'rik gulladi” shaklida emas “O'rik oppoq bo'lib gulladi” shaklida qo'llab, she'rning alohida tasirchanligi va jozibadorligini taminlaydi.

Parchadagi keng istemol so'zlar guruhiga mansub “qurg'ur” so'zi ham o'zining haqorat, qarg'ish manosidagi salbiy ottenkasini yo'qotgan, ijobiy

⁴ X.Olimjon tanlangan asarlar nashrga taёрловчи С.Азамов Ўздав нашр Тошкент 1951. Навбатдаги мисолларда бу манба ТА шаклидаги қисқартмаларда берилади.

bo'yoqdor manosini kasb etgan. U keltirilgan misollarimizda juda yaqinmas moyillikka jamol manosidagi erkalatish mazmunini ifodalagan.

Keng istemoldagi so'zlarni ayni uslubiy maqsadlarda qo'llash «o'rik gullaganda» she'ridagi “beor” so'zida yaqqol ko'rinadi:

Har bahorda shu bo'lar takror

Har bahor ham shunday o'tadi.

Qancha tirishsam ham u beor

Ellar meni aldab ketadi.

(H.O. TA. 185)

Misollarimizdagi ***beor*** so'zi mazkur boyitishning, umuman, badiiy matnning tasirchanlik kuchini oshirgan, usluban ravonlik, aniqlikni taminlash kabi vazifalarni bajargan.

“Don chiroqlari” she'rida H.Olimjon: ***elektr nuri qarshisida ko'kdagi milliard yulduzlar ham sharmanda***, deya takidlab mazkur she'rida “sharmanda” so'zini ham keng istemoldagi so'zlar guruhidan bo'lib, badiiy matnga aniqlik, konkretlik kiritgan, qiyoslash, chog'ishtirish vazifasini bajargan.

Tunda o'tdi yashnagan dala

Qah-qah urib etardi handa.

Va ko'kdagi milliard yulduzlar

Tunar edi bo'lib sharmanda.

(TA 408)

Sharmanda so'zi etimologik jihatdan fors-tojik tiliga mansub bo'lib, ***sharmu hayoni yo'qotgan hayosiz: rasvo*** manolarini ifodalaydi.⁵ Keltirilgan misollarda bu so'z matn qurshovida o'zining asl lug'aviy manosidla emas, balki *xira tortmoq, chekinmoq, engilmoq* kabi manolarda qo'llangan.

Keng istemoldagi so'zlar sirasiga mazkur leksik vosita ham she'rning tasirchanligi va jozibadorligini taminlagan. Darhaqiqat, “Badiiy manoda qo'llanuvchi barcha so'zlar tasviriy vositalar deb yuritiladi. Ana shu so'zlar yordamida adiblar asar mazmuni va g'oyani kitobxonga etkazadilar, ularda shu

⁵ Ўзбек тилининг изохли луғати икки жилдлик М. 1981 Наавбатдаги мисолларда бу ЎЗИЛ шаклидаги қисқартмаларда бериллади.

tasvirlanayotgan voqea-hodisaga shaxsiy munosabat uyg'otadilar"-degan fikr⁶ yuqorida tavsiflangan **beor, qurg'ur, sharmanda** so'zlarining H.Olimjon ijodiy laboratoriyasida o'zlarining asl manolarida emas, balki matn qurshovida boshqacha manolarda qo'llanilishi badiiy matnning lisoniy talablari taqozosidir.

Takidlash joizki, "Don chiroqlari" she'rida ko'kdagi milliard yulduzlar ham Don chiroqlari yorug'ligi oldida mubolag'ali qiyos usulida **xiradir** manosini ifodalagan "Sharmanda" so'zi shoirning "Zaynab va Omon" poemasida Anorxola nutqida Zaynabga nisbatan o'sha so'zning asl manosida qo'llanilib, salbiy bo'yoqlarni oshirish vazifasini bajargan.

Bizda odat mana shu edi.

Va soadat mana shu edi.

Sen sharmanda endi bemalol,

Hammasini qilibsiz paymol,

(TA 403)

Mazkur so'z matn qurshovida eng qo'pol haqorat manosida ishlatilgan. U *orsiz, beor, nomussiz, benomus, hayosiz, bexayo, uyatsiz, rasvo* kabilar bilan bir sinonimik qatorni tashkil qiladi.

Shubhasiz, matnda ijobiy bo'yoqdor so'zlar ham salbiy bo'yoqdor so'zlar ham o'sha matnning mazmuniga dahldor adib maqsadini kitobxonga aniq, lo'nda qilib etkazishning vositasidir. Demak, ***"benomus", "baxti qaro". "xaromi", "shayton". "makkor", "iblis"*** kabi xaqorotni ifodalovchi leksik uslubiy vositalardir. Ular Anorxola nutqida Zaynabga nisbatan nihoyatda kuchli g'azab-nafratni ifodalagan:

Benomus qiz ayt to'g'risini,

Baxti qora! El nomusini

Orsizlarga paymol etganda,

Zarracha es bormudi senda?

Qaysi shayton yo'lga boshladi?

Qay xaromi o'tga tashladi?

⁶ Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил Тошкент, «Ўқитувчи»

Yo'ldan urdi qaysi bir makkor?

Ochig'ini so'ylagil beor:

Senga buni kimlar o'rgatdi?

Quchog'ingda qay iblis yotdi?

(TA 402)

Shoir “mahorat” she’rida ham “omoch”, “latta”, “dard”, “moya”, “zanjir”, “tikmoq” kabi tarkiban sodda umumistemol so’zlarni, *buyuk fojia*, *ikki qat*, *zulm qamchisi*, *badbaxt sovg’a* kabi birikmali keng istemol so’zlarni marifiy obraz, manzara yaratish, asar g’oyasini uqtirish kabi uslubiy maqsadlarda qo’llagan. Misollar:

Eng orriq

Eng qattiq

Eng och, qoq erda

Biz omoch surganmiz-

Qo’llarda kishan:

Biz chigit tikkanmiz-

Sochib erga dard.

Hosil-chi?

Shilinib olingan bizdan

Ikki qat zulmning qamchisi bilan

Tilanchi,

Chorakor,

Muhtoj,

Mardikor-

Bular manosidir hayotimizning;

Fikr qashshoqlikning badbaxt sovg’asi,

Bu mushkul,

Eng og’ir

Buyuk fojia.

(TA 134)

Keltirilgan misollardagi ajratilgan keng istemoldagi soʻzlar adib tomonidan asosan marifiy-uslubiy maqsadlarda qoʻllanilgan ifoda tasvir vositalari boʻlib, ular kitobxonga oʻtimli va hozirgi kun haqida toʻgʻri xulosa chiqarishni koʻrsatuvchi leksik vositalaridir. Demak ayni manoda H.Olimjon sheʼrlaridagi bunday birliklar nafaqat badiiy matnning ifoda tasvir vositasi, balki davrimiz yoshlari uchun oʻtmishni aniq tasavvur qilish, hozirgi istiqlol davrimiz qadriga etishni marifiy maktabidir ham.

Bu soʻzlarga –day-dek kabi grammatik vositalarni, yani maxsus qoʻshimchalarni qoʻshib ishlatilishi ayrim tadqiqotlarda alohida takidlanganidek,⁷ chiroyli ifoda tasvir vositalari yaratgan:

Mushtumzoʻr oyogʻi ostida

Ular -qul,

Kafangado Oʻlimga mahkum.

Ularni lattaday

Podaday

Molday

Qoʻldan-qoʻlga sottilar birday. (Ta 133)

Maʼlum boʻlishicha, keltirilgan misolimizda ***“tikmoq soʻzi” “ekmoq”, “dard” soʻzi “urugʻ”, “ikki qat zulm qamchisi”*** birikmasi mahalliy boylar va chorizm zulmi manosida saatkorona qoʻllangan ifoda tasvir vositalaridir.

Bular har qanday oʻquvchini chuqur mulohazaga chorlaydi.

H.Olimjon “Oʻzbekiston” sheʼrida xalqimiz tabobatiga xos fazilatlarni, goʻzal diyorimizning beqiyos tabiati manzaralarni tasvirlashda hamma uchun birday tushunarli boʻlgan umumistemol soʻzlardan aniq, konkret tasvirni taminlash uslubiy maqsadlarida foydalangan. Shartli ravishda bu sheʼrning uchinchi qismidagi 30 ta misrada *bulbul, qurt, ari, qush, qor, qish, kun, kuychi, juvon, pazanda, alla, yalla, shirmon, qari, somon, sovuq, osmon, atlas, ipak* kabi faqat “ot” soʻz turkumiga mansub 20 ta soʻz keng istemol soʻzlar guruhiga kiradi. Misollar:

⁷ Лапасов. Ж. Кўрсатилган иш 27-30-бет.

Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,
Bunda ari keltiradi bol.
Bunda qushlar topadi iqbol,
Bunda qorning taglarida qish,
Bahor uchun so'ylaydi olqish,
Botirlari kanal qaziydi,
Shoirlari g'azal yozadi,
Kuychilari o'qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla. (TA 212-213)

Misollarimizda ajratib ko'rsatilgan leksik birliklar keng istemoldagi so'zlar bo'lib, ular "O'zbekiston" she'riga alohida jozibadorlik, tasirchanlik baxsh etgan ifoda tasvir vositalaridir.

Istemol doirasi chegaralangan so'zlarning uslubiy qo'llanilishi

H.Olimjon she'rlarida istemol doirasi funktsional chegaralangan so'zlar ham uslubiy vosita sifatida qo'llangan.

Filologiya fanlari doktori, proffessor E.Qilichevning alohida takidlashicha, arxaizm, istorizm, professionalizm, vulgarizm, jargonizm kabi leksik semantik vositalar til lug'atida funktsional chegaralangan leksik vositalar xisoblanadi.⁸

H.Olimjon 20-30-yillar ijtimoiy hayotimizdagi voqealarni ifodalashda chegaralangan leksik qatlamga mansub eskirgan so'zlardan ham xalq hayotidagi yangiliklarning tildagi aksi bo'lgan neologizmlardan ham turli uslubiy maqsadlarda o'rinli foydalangan. Bu o'rinda Quron, tasbeh, tangri payg'ambar, mushtumzo'r, jallod, azon, dorilfunun, kashshof, sho'ro, firqa, ochun kabi eskirgan so'zlarning uslubiy qo'llanilishi xarakterlidir. Misollar:

G'ijillar kichik eshik,

⁸ Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари Тошкент, «Фан» 1982. 24.б.

Chiqar qizing kashshof qiz....

Ishchilarning temir po'lat qo'llari...

Yo'qsillar qalbiga chechak taqdi. (TA 7)

Biz siz bilan birgamiz

Mushtumzo'rlar yo'q bo'lsin. (TA 45,46)

Alam bilan eding yor,

Taqdir seni ezarkan.

Dudoglardan uchib zor

Dillarda qon sizarkan. (TA 23)

Olimlarning takidlashicha, adib poetik asarlarida “eskirib istemoldan chiqqan o'z sinonimi ekvivalentiga ega bo'lmagan so'zlar istorizmlar”⁹dan ham stilistik vositalar sifatida foydalanadi.

Masalan:

Mushtumzo'rni

Barbod qilgan

Bizning xalqimiz

Xayollari

Puchga chiqqan

qora neptanning.

(TA 73)

20-30-yillarda o'zbek tili hayotida ham katta o'zgarishlar bo'ldi. Uning tilimiz leksikasidagi aksi sifatida davr adabiy tilida yangiliklarning ifodasi bo'lgan neologizmlar qo'llanila boshladi. Davr tiliga katta hissa qo'shgan adibning 20-30-yillar poetik asarlarida *gudok*, *traktor*, *vint*, *kolxoz*, *paravoz*, *injener*, *gigant proifinplant*, *vagon*, *elektr*, *MTS*, (TA 57,62,75,85,99,136,132,bet) kabi o'sha davr uchungina yangilik bo'yog'i bor bo'lgan bir necha yuzlab so'zlar-neologizmlar davrining til leksikasidagi aksi sifatida ishlatilgan. Misollar:

...Tongda gudokdan oldin ilxomlar. (TA 7)

...Gudoklar(TA 26)

⁹ Қиличев. Э Кўрсатилган иш. 33-б

Turmushda oy, yulduzlar
Quchoq ochib turarlar.
Baxmal cho'llar qo'ynida
Traktorlar kulalar (TA 26)
Traktorning
Har vintini
Bil
Ehtiyot qil!
Kolxoz
Paxta
Va traktor
Buni angla,
Bil!!!
(TA 87)

Ko'rsatilganlar shoir asarlari tilida 20-30-yillar o'zbek xalqi hayotidagi yangiliklarning nominativlari edi. Ularning aksariyati rus tilidan tayyor xolda olingan neologizmlardir: *trator, zavod, kolxoz, injener, student, fabrika, tramvay* va shu kabilar.

Bunday neologizmlar yangilik bo'yog'i bor til birliklari ¹⁰ davr ruhini ko'rsatish uchun uslubiy vosita vazifasini bajargan. Demak, ular faqat 20-30-yillar nuqtai nazardan neologizim yangilik bo'yog'i bor til birliklaridir. Hozirgi davr nuqtai nazardan badiiy nutqda ham neologizmda ham, xalq so'zlashuv tilida ham neologizm emas. Ular yangilik bo'yoqlarini yo'qotgan, odatdagi so'zlarga aylanib qolgan. Chunki "Neologizm o'ta nisbiy tushuncha, til taraqqiyotining bir bosqichida neologizm hisoblangan so'zlar ikkinchi bosqichda ham neologizm bo'lishi shart emas" Masalan, 30-yillar uchun neologizm bo'lgan **rels, poezd, vagon, tramvay** kabi qator so'zlar hozirgi kunda odatdagi keng istemoldagi so'zlardir. (HO'AT 1992, 135,b)

¹⁰ У.Турсунов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент «Ўзбекистон», 1992,152,б (Олий ўқув юртлари учун дарслик Бундан кейин ушбу манба Ҳ.ЎЗ 1992, шаклидаги қисқартмада кўрсатилади).

Xuddi shunday shoirning 1941-1945-yillar ijodida badiiy matnning leksik vositalari sifatida ishlatilgan **vistavka, avtomat, rota, ataka** kabilar ham ancha bo'yog'ini yo'qotgan odatiy so'zlardir: Rota-hujumga tayyor (misollar shuning muqaddimasida berilgan edi)

Xullas, H.Olimjonning poetik asarlarida istemol doirasi funktsional chegaralangan til birliklari: eskirgan so'zlar ham, davr ahamiyati bilan yangi voqeaning yagona nomi sifatida kirib kelgan neologizmlar ham muhim stilistik vosita vazifasini bajargan. Bular shoirning o'zbek adabiy tili leksikasiga qo'shgan alohida ulishi edi. Chunki tavsiflangan til birliklari o'zbek xalqi hayotiga endigian kirib kelayotgan yangiliklarning yangi nomi edi. O'z davri yangiliklariga hozirjavob adib ularni poetik nutqqa olib kirdi, ularga turli uslubiy vazifalar yukladi.

Takidlash joizki, sanalgan til birliklarining aksaryati hozir ham o'zbek adabiy tili lug'atida yashab kelmoqda. Bular, shubhasiz, o'zbek adabiy tili rivojlanishida H.Olimjonning alohida o'rni mavjudligini isbotlovchi lisoniy va adabiiy dalillardir.

II BOB. H.OLIMJON ShERIYATIDA SO'ZLARNING SHAKL VA MANO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

Tilshunoslikka oid oliy o'quv yurtlari uchun «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani darsliklarida so'zlarning shakl va mano munosabatlariga ko'ra turlari bir necha tipga ajratilib tahlil qilingan, Shonazar Shoabdurahmonov va boshqalar muallifdoshligidagi darslikda bu hodisaning 6 ta turi ko'rsatilgan: omonimlar, omofonlar, omogrflar paronimlar, sinonimlar va antonimlar.¹¹ Ayni muammo HO'AT 1992 da lug'aviy sinonimiya, lug'aviy omonimiya, lug'aviy poronimiya tasnifida bayon qilingan. (HO'AT 1992, 107-147-b.)

Masalan so'z shakli, manolariga dahldorlikdan ikkala tasnif ham mohiyatan birdir. Birinchi tasnifga tovushi bir xil, manosi boshqa, yozilishi bir xil, ammo manosi boshqa holatlar ham alohida tip sifatida ko'rsatilgan xolos.

Biz malakaviy ishimizning bu o'rnida masalani o'rganish tavsiflarini emas, ayni muammoning, aniqrog'i o'sha tasniflarda ko'rsatilgan omonimlar, sinonimlar, antonimlarning H.Olimjon poetikasida uslubiy qo'llanishi xususida fikr-mulohazalarimizni bayon qilish bilan chegaralanamiz. Chunki ko'rsatilgan til birliklarining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan mukammal, mufassal o'rganilgan masalalardir.

1.Omonimlarning uslubiy qo'llanilishi

Ma'lumki, «Talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar omonimlar» dir (HO'AT.1980.110-b.) Omonimlarning mazkur tarifi «Til birliklarining lug'aviy planida teng kelish hodisasi» deyiladi. (HO'AT.1992. 126-b.) Bu tarifda muayyan til birligi so'zning tovush (talaffuzi) jihatidan ham, grafik (harfiy) ifodasi jihatidan ham bir xilligi nazarda tutilgan, shu jihatdan 1980 yil nashir qilingan Shoabdurahmonov darsligidagi so'zlarning shakl va mano munosabatlarining ikkinchi va uchinchi tiplari (omonimlar va omogroflar). U.Tursunovlar darsligida lug'aviy omonimiyaning tarkibida berilgandir. Chunki tilda ikki xil omonimiyaning,

¹¹ Ш. Шоабдурахмонов, М.Аскарова, А.Ҳожиёв, И.Расулов, Х.Донёров, Ҳозирги ўзбек адабий тили Тошкент «Ўқитувчи» 1980. 110-120 б. Зарур ўринда бу манба (ХЎЗ 1980. Иккинчи манба У.Турсунов ва бошқалар муаллифдошлигидаги дарслик эса ХЎЗ 1992 шаклидаги қисқартмада кўрсатилади).

yani lug'aviy omonimiya (so'zlardagi) va grammatik omonimiyani (qo'shimchalardagi) farqlashga to'g'ri keladi. Masalan; **asar** - mehnat va ijod mahsuli: Oybek asarlari, **asar** - biror voqea-hodisadan qolgan iz. *Hozirgi Toshkentda zilziladan asar ham qolmagan.*

Siz I-Ikkinchi shaxs kelishik olmoshi

Siz II-Ikkinchi shaxs tuslovchi (o'tibsiz)

Siz III-sifat yasovchi qo'shimcha

Bu o'rinda ma'lum tahlil va tavsiflarni takrorlash ortiqchaligidan ularning H.Olimjon poetik asarlarida ishlatilishiga namunalar keltirish bilangina kifoyalanamiz.

O'zbek tilining izoxli lug'atida **kun** so'zining qayd qilingan 6 ta manosidan (O'ZIL 1 jild, 405-b.) ikkitasi H.Olimjonning «O'zbekiston» she'rida ot va ravish turkumiga doir manolarida qo'llanilib, usluban she'riyatda so'zlarning ohangdoshligi taqozosi, so'z o'yini talablarini bajargan:

Bir parcha o't bo'lib bunda kun

Paxtasiga shulaydi har kun. (TA 212-213)

Shubxasiz, adib bu masalda «kun» so'zi sutkaning bir qismi manosini qo'llab lug'aviy omonim yaratgan, natijada badiiy nutqda so'z o'yini hosil bo'lgan, she'rning obrazligi, tasirchanligi taminlangan.

Darhaqiqat, tilshunos olim A.Shomahsudovning takidlaganidek, omonimlar adiblarning she'riyatda so'z o'yiniga, so'zlarning ohangdoshligiga erishishga imkon beruvchi leksik-stilistik omil hisoblanadi.¹²

Bu jihatdan H.Olimjon poeziyasida «**yot**», «**yosh**», «**soz**» lug'aviy birliklarining uslubiy qo'llanilishi xarakterlidir. Shoir bunday til birliklari vositasida hayotni haqqoniy tasvirlagan, ishonarli badiiy obraz yaraitgan.

Chuvab kelar edi qarilar, yoshlar

Odam va hayvonlar appa aralash....

Yuzlarcha dengizlar bo'lardi paydo

Ota-onalardan oqqan yoshlardan...

¹² А.Шомахсудов Ўзбек тили стилистикаси. Иккинчи қисм Тошкент..... 1974. 9 б.

Yo'l bosar edilar charchab toliqib

Barchaning ko'zida chiqqa-jiqqa yosh.

«Soz» so'zi manbalarda olmosh shakllar atamasida tavsiflanib, bu so'z (Soz-soz II shaklda) ot turkumi va sifat turkumiga mansubligida bir xil shaklda bo'ladi; deya takidlanadi. (HO'AT 1992, 129-b.) Bu xususiyat lug'atlarda ham shu shaklda bo'ladi.

Soz I-yaxshi, tuzuk, durust: Oz so'z-soz so'z (Maqol)

Soz II-milliy musiqa asboblarning umumiy nomi: dutor, tanbur, g'ijjak va b. (O'ZIL II 64-b.)

Bu so'z H.Olimjon poetikasida so'z birikmalari tarkibida leksik-stilistik vositalardan biri sifatida ***yaxshi so'zlash, ilxom parisi*** kabi manolarda qo'llanilib, badiiy matnning o'quvchiga tasirchanligi, jozibadorligini orttirgan:

Soz so'zlading go'zal deding, ofarin.

Marhabo kel qalbimga qaynoq soz.

Yot so'zi shoirning «Shohimardon» poemasiida ***begona*** va ***yotmoq*** fe'li manosida qo'llanib, inson huquqlari oyoq osti qilingan, ularning hayvonlarcha ham qadri bo'lmagan o'tmish haqida aniq ma'lumot beradi. Mazlumlarning umumlashgan badiiy obrazini yaratadi. Masalan.

Ijodiy qalib, mardikor, batrak.

Ajralmishdir parcha nonidan.

O'z uyiga o'zi bo'lib yot

Ajralmishdir so'ng choponidan.

Bizlar emasmidik sayisxonada

Ilonlar, otlar bilan barobar yotgan?

Senlar emasmiding, shu ko'hliklarda

Bizga zahar berib, lazzatni topgan. (TA 323-327)

Bu misrada ajoyib so'z o'yini shaklida **«yot»** so'zi, shubhasiz, kambag'allik avj olgan, odamlar, hatto o'z uyiga ham begona bo'lib qolgan davr manzarasini tasirchan ishonarli qilib tasvirlash uchun ishlatilgan leksik vositalardan biridir.

Tadqiqotlarda yozilishicha, bir xil so'zlar - omogroflar, so'zlarning shunday munosabati omogrofiya ekanligi takidlangan. Bu xulosa tach (daraxt) va tach (qurilish material) tok (uzum butasi) va tok (elektr toki) so'zlari tavsifida sharhlangan (HO'AT. 1980, 113-b.)

Ikkinchi darsligimizda yuqoridagi fikr yanada ravshan, mufassal bayon qilingan.

Darslik mualliflarining takidlashlaricha, «Til birliklari talaffuzida farqlanib, yozilishi jihatidan teng kelib qolsa, omogroflar yuzaga keladi; o'zbek adabiy nutqining yozma ko'rinishida omogroflar asosan ayrim tovushlar uchun alfavitlar mufassal harf olmay, bu tovushlarni ko'rsatish vazifasini alfavitdagi boshqa harflarga yuklash natijasida, demak, suniy ravishda paydo bo'lgan» (HO'AT. 1992. 137-b.)

Demak yuqorida omogroflarga berilgan izohni «O» harfi bilan ikki fonemani izohlash oqibati deb tushunmoq kerak.

Shoir H.Olimjon tilshunoslikdagi ayni holatdan o'zbek adabiy nutqining yozma ko'rinishidan «Ont» she'rida ayrim so'zlarning omogrofik shakllaridan uslubiy vosita sifatida keng foydalangan. Masaln:

Qoraqumning eng jazirama,

Yonib turgan o't quchog'idan

Toliqmasdan o'tdi bizning ot;

Osmonni to'ldirib tovushiga

Po'lat qushlarimiz yozganda qanot. (TA 143)

Bu misralarda tilimiz izohli lug'atida sharhlangan **o't** so'zining birinchi manosi **olov** manosi va **o'tmoq** fe'lining **o'tdi** (o'tgan zamon shakli) omogrofik munosabat (O'ZIL II. 517-521.b)da qo'llanilib leksik tasviriy vosita vazifasini bajargan.

Hullas, adibning poetik asarlarida tilshunoslik manbalarida til birliklarining shakl va mano munosabatlariga ko'ra tiplaridan. Shakldosh so'zlar (omonimlar, omogroflar, amofonlar)muhim leksik-stilistik vositalaridan biri sifatida o'rinli qo'llanilgan. Ular badiiy matnning tasirchanligi, obrazlilik va

jozibadorligi kabi uslubiy vazifalarni bajargan. Chunki ular tilshunos olimlarimiz etirof qilganlaridek, adabiyotimiz asarlariga husn beruvchi leksik stilistik omillardan biri hisoblanadi.¹³

H.Olimjonda yuqorida tavsiflangan shakldosh so'zlardan soz lug'aviy birligining yaxshi so'zlash, ilxom parisi manolarida qo'llashi bu fikrning eng xarakterli dalilidir. Bunday misollarni shoir ijodida ko'plab uchratish mumkin.

2. Sinonimlarning uslubiy qo'llanilishi

Tilshunos olimlar: U.Tursunov, J.Muxtorov hamda Sh.Rahmatullaevlar muallifdoshligidagi oliy o'quv yurtlari uchun «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida sinonimlar o'zaro mano qirradi jihatidan, uslubiy baho jihatidan, nutqiy xoslanish belgisi jihatidan farqlanuvchi til birliklari ekanligi tahlil va tavsif qilingan. Nihoyat, ana shu uch tavsif asosida sinonimiya qatorining bosh vakili-daminatasi belgilanadi, deyilgan. (HO'AT 1992, 107-112,b.) Bu olimlar takidlab ko'rsatilgan tahlil va tavsiflarini xulosalab, sinonimlar (manodosh so'zlar)ga quyidagicha tarif beradilar: Ideografik semalar yig'ini keng, ayni vaqtda yoki bir necha jihati (jumladan, biror ideografik semasining mavzei, mano qirradi: uslubiy semasi, nutqiy xoslanish belgisi) farqli til birliklari imkonlari deyiladi (HO'AT . 1992, 120-b)

Mazkur tavsif, tahlil tavsiflarga suyangan holda shoir H.Olimjon asarlarida ham sinonimlarning stilistik qatordagi so'zlarning betarafligi yoki hissiy bo'yoqdorligi, nutqiy xoslanishi kabi uslubiy talablar maqsadida qo'llanilganligini ko'ramiz.

Malakaviy ishning bu qismida adib asarlaridan sinonimik qatorlarning tuzilishiga oid bazi misollar keltirib, ular asosida fikr-mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Tilshunos olim Saodat Boboeva maxsus tadqiqotlarida H.Olimjon poetikasida sinonim so'zlar tuzilishiga ko'ra 12 ta turdagi tasnifda tahlil qilgan¹⁴.

¹³ А.Шомахсудов кўрсатилган иш. 10 б.

¹⁴ Бобоева С. Ҳ.Олимжон поемасининг лексик хусусиятлари. Тошкент, «Фан», 1989, 29-30-бет.

Biz bu o'rinda ularni umumlashtirib, tubandagi 6 ta tematik tasniflarda bayon qilamiz.

I. Arxaik va yangi so'zlar qator keltirish bilan tuzilgan sinonimik qatorlar:

Hamma narsa safarbar senda,

Har birisi o'z kuyin kuylab,

Avtomobil, arava, tuya.

Paxta tashur o'lkani bo'ylab.

Bu misradagi turli davrga oid «avtomobil», «arava», «tuya» so'zlari birlashtirilib, bitta sinonimik qatorni tashkil etganligi ma'lum. Bu o'rinda ular matn qurshovidagina sinonim bo'lib, adibning tilimiz lug'ati tarkibidagi so'zlardan qanday maqsadda foydalanganlik dalilidir.

II. Ot turkumiga oid manosi, yasalishi jihatidan har xil so'zlarni uslubiy vosita sifatida qo'llagan. Masalan, *mardlik, yigitlik, sevgisiz, nashasiz, kuchsiz, madorsiz, umidsiz, ishonchsiz* so'zlari mavhum otlardir. ***Yurak, ko'krak, suyak*** so'zlari esa aniq otlardir.

Bu so'zlar ishtirokida H.Olimjon mavhum manoli va aniq manoli sinonimik qator tuzib, ularga manoni alohida kuchaytiruvchi uslubiy vazifa yuklagan.

1. Umidsiz, ishonchsiz puch yuraklarga

Biz mardlik, yigitlik shamini yoqdik.

2. Onasiz ingragan sho'rlik go'dakdek,

Sevgisiz, nashasiz, kuchsiz, madorsiz

Bir kelib, bir kulib ketajak edik (TA 12)

3. Keskin qatiy kurashlarga botir, safarbar!

Yuragi, ko'kragi, suyagi bilan (IT 197)

Mazkur misralarda ajratilgan otlar mavhum va aniq otlardan tuzilgan sinonimik qatordir. U asosan manoni kuchaytirish uslubiy vazifasini bajargan.

III. Tubandagi sinonimik qatordagi ajratilgan til birliklari tuzilishi va yasalishi jihatdan xil ma-xildir.

1. Sodda tub va yasama otlardan tuzilagn qator;

Bu dala bu ko'klik

Ko'p oshna bizga

Kindik qoni shunda to'kilgan (1T 159)

2. Ot bilan «yo'q» modal so'zining birikuvidan tuzilgan sinonimik qator:

Uyi yo'q, joyi yo'q, yotog'i yo'q bir

Sig'indi onaning sen qizi eding (II.t 99)

IV. Sifat turkumga mansub so'zlardan tuzilgan sinonimik qator:

1. Asliy va nisbiy sifatlardan

G'ijirlar kichik eshik,

Chiqar qizil kashshof qiz,

Yomg'ir yuvgan yaproqdek,

Jonli tirik va tetik. (1T 97)

2. Ikki sifatdan tuzilgan sinonimik qator

Sirli sen, chayqol, ey go'zal dilbar

Sho'x va o'ynoq qiz albomi yanglig'...(1T 61)

V. Ravish, ravishdoshlardan tuziladigan sinonimik qator.

.....Er axtarib boqqanda qiyg'och,

Qoshi bo'lib xuddi qaldirg'och,

Atrofida oylar charx urar,

Tegrasini yulduzlar o'rar.

Ravishdoshlarni qator keltirish bilan qilgan sinonimik qator.

Yuvib,

Tarab,

Sevib,

O'pib,

Quchib,

oppichlab,

Ey baxtlarni balog'atga etkazgan ona! (TA 129)

«Baxtlar vodiysi» she'rlaridan olingan bu misralarda ravishdoshlar harakatini kuchaytirish uslubiy maqsad taqozosi hisoblanadi.

Ayni holat harakatni, holatni kuchaytiruvchi gradatsiyadir. Bunda ma'lum narsa, shuncha, voqea-hodisalarga taaluqli bo'lgan belgi xususiyatlar mano jihatdan o'xshash so'z iboralar yordamida kuchaytirib boriladi.¹⁵

VI. Ikki fe'ldan, sodda va birikmali fe'lardan olmosh va fe'lning birikuvidan tuzilgan sinonimik qator:

Dilda nasha, qo'limdagi nayla,

Menda sayray butun tilaklarni

Jonlatay so'zlatay varaqlarni.

Ey go'zal o'ynama, sekin tingla!..

Bahorda yosh yaproqlar.

O'ynardi, raqs etardi.

El- cholg'ilarin tinglab,

Kunlar g'amgin o'tardi.

-Biz tayyormiz!

Biz hozirmiz,

Bizning safarbar!

(IT. 61,69,128)

Sanab o'tilgan oltita guruhga mansub sinonimik qatorlarini tashkil qilgan manodosh so'zlar turli so'z turkumlariga mansubligi, grammatik jihatdan ham tarkib jihatdan ham manodosh so'zlar qatorini tuzishda va ularning uslubiy qo'llanishida adib mahorati aniq ko'rinib turibdi.

Takidlash joizki, H.Olimjon she'rlarida manodosh so'zlar qatorini tashkil etgan til birliklarining bazilarini sinonimik qatorga qo'ygan birinchi talab-mano qirradi jihatidan tahlil qilinadigan bo'lsa, sinonimlar deyish unchalik to'g'ri emas. Ular uchinchi talabga ko'ra, nutqiy xoslanishga ko'ra kontekstual sinonimlardir. (HO'AT 1992 112,b).

Ayni holat xususida S.Boboeva tadqiqotida

¹⁵ Лапасов Ж. Кўрсатилган иш. 42-бет.

Ehtiyoj, mashaqqat va qon...

Mana turmush yo'li,

Bari ko'rgani,

Barcha kechirgani,

Rohat kayfi.

Misralaridagi «*mashaqqat*» bilan «*uqubat*» so'zi «*rohat*» so'zi bilan «*kayf*» so'zi «*ko'rgani*» so'zi bilan «*kechirgani*» so'zi sinonim so'zlardan iborat bo'lsa ham, lekin «*ehtiyot*» «*qon*» so'zlari alohida olib qaraganda bir-birlari bilan va yuqoridagi so'zlar bilan manodosh so'zlar va sinonimlar deb bo'lmaydi, degan fikr haqiqatdir. Zero, ular o'sha matndagina qo'llanilgan kontekstual sinonimlardir.

Demak shoirning poetik asarlarida mano qirrasini, uslubiy bo'yog'i (ijobiy yoki salbiy), nutqiy xoslanishi bo'yicha haqiqatdan sinonimlar muhim leksik semantik va stilistik funktsiyada qo'llanilgan. Bular adibning tilimiz leksikasiga qo'shgan ulishlarining bir ko'rinishidir.

Etirof qilish joizki, H.Olimjonning til va uslubiga xos bo'lgan alohida bir xususiyati tilshunos olimlarimizning tariflashicha, «U sevgan ko'p ishlatgan takror usullardan bir qismi, odatda, sinonimlardan foydalanish yo'li bilan vujudga kelgan».

Shuning uchun ham shoirning takror usulidan foydalanishi bilan sinonim so'zlardan foydalanishi orasidan bevosita bog'liqlik bor.

Ular bir umumiy uslubga xos usullardir. Lekin shoir H.Olimjon uslubining ayrim xususiyatlari o'rtasidagi bu o'xshashliklar va umumiyliklar ularning xalq tiliga xos bo'lgan boshqa-boshqa materiallar asosida yuzaga kelganligini inkor qilmaydi. Aksincha. Bular H.Olimjon nazmiga xos bo'lgan bir umumiylikni tashkil etadi va faqat uning uslubiga xos bo'lgan o'ziga xoslikni taminlaydi.

3. Antonimlarning uslubiy qo'llanilishi.

O'zaro zid manoli so'zlar antonimlardir. So'zlarning zid manoliligiga ko'ra guruhlanishi esa antonimiya xodisasidir.

Antonimiya ikkita til birligi orasidagi munosabatga asoslanadi. Bularning biri ikkinchisiga nisbatan antonim bo'lib, antonimik juftni hosil etadi.

Demak, sinonimiyada ikki va undan ortiq til birligi qatnashib, ular bir voqealikni nomlaydi, ifodalaydi. Antonimlik munosabatda ikki til birligi qatnashib, biri ikkinchisining aksi bo'lgan voqelikni nomlaydi, ifodalaydi.

«Antonimiya so'zlarining o'zaro zid (qarama-qarshi) munosabatlaridagi manoga egaligidir. Ana shunday munosabatdagi so'zlar antonimlar deyiladi» degan tarif qator darsliklar, monografik tadqiqotlarda alohida takidlanadi.¹⁶

O'zbek tili lug'at tarkibiga bir-biriga zid voqea-hodisa, belgi-xususiyat, hajm-shakl, maza-tam kabi manolarni ifodalovchi til birliklari juda ko'p. Ular birday manoda, avvalo, leksik vosita, qolaversa, ifoda tasvir vositalaridan biri antiteza-qarama qarshi qo'yish yani, qarshilantirish stilistik vositasi vazifasini bajaradi. Ayni usul badiiy matnda tasvirlanayotgan voqea-xodisaga kitobxonlarning his-tuyg'usini kuchaytiradi, masalan, «**Shoh**», «**zindon**», «**qul**», «**sulton**» so'zlari qo'llanilish doirasi funktsional chegaralangan leksik birliklardir. Ular badiiy matn qurshovida adib ijodiy laboratoriyasida qarshilantirish usulida nihoyatda tasirchanlik va obrazlilikni ifodalovchi leksik-semantik vazifasini bajargan.

Ilmu she'rda shohu sulton.

Lek taqdirga qul,

O'z elida chekdi g'urbat,

Zoru nolon o'zbekim.

(E.Vohidova «O'zbekim»)

Misolida shoh va sulton so'zlari qul so'ziga qarama-qarshi qo'yilgan. Parchadagi ajdodlarimizning ilimda marifatda shoh sulton bo'lsa-da o'z taqdiriga qul bo'lib kelganligi bayon qilingan.

Shoir H.Olimjon ham ifoda tasvir vositasining zid qo'yib tasvirlash usulidan kengroq foydalangan. Masalan, shoir «Ofe'liyaning o'limi» she'rining boshlashidagi baytida quydagi takror misralarda «kuylash» so'zi mayus va

¹⁶ Миртожиев М. Сўзшунослик шакл ва маъно муносабатларига кўра турлари. Китоб Ўзбек тили лексикологияси Тошкент «Фан» 1981, 251 бет. (ХЎЗ 1980 118,6 ХЎЗ, 1992, 120,6).

g'amgin sazoga (ovozchi) oq va nafis gul so'zi birikmasi «Motam va aza»ga qarama-qarshi qo'yilgan. Ayni holat o'quvchining Ofe'lyaga nisbatan qayg'urish tuyg'usini kuchaytiradi:

Orzung bor kuylashga lekin qalbingdan

Tarqalar bir mayus va g'amgin sazo,

Qo'yingda bir quchoq oq va nafis gul,

Lekin ruhing to'la motam va azo (TA 167-168)

Takidlash joizki, H.Olimjonning poetik asarlarida istemol doirasi chegaralanmagan yani keng istemoldagi *ko'mir, er, oq, do'st, yolg'on* kabi til birliklari istemol doirasi funksional chegaralangan *do'zah, jannat, taqdir, motam* kabi arxaik so'zlar antonimik munosabatga kiritilib quyidagicha antonimik juftliklar vositasida turlicha stilistik maqsadlarda qo'llaniladigan leksik-semantik vositalar yaratilgan. Masalan: oq-qora, yosh-qari, yolg'on-chin, achchiq-shirin va hakovolar

Bolalik kunlarimda,

Uyqusiz tunlarimda,

Ko'p ertak eshitgandim,

So'ylab berardi buvim....

Tinglar edim betinim

Uzun tunlar yotip jim.

Seza olardim kuchim,

Ko'pi yolg'on, ko'pi chin. (TA 353)

Qullarning isyonida

O'tardi oyu-kunlar...

Ochlar to'kib yoshini

Olishardi kunu-tun. (TA 354)

Misollarda uchta misradagi antonimik juftliklar «Oygul bilan Baxtiyor» poemasi qarshilantirish usulida obraz yaratishning leksik-semantik vositasi vazifasini bajargan. Shubhasiz, bu o'rinda **yolg'on, chin, oy, kun** so'zlari alohida olib qaralgana betaraf leksik birliklar bo'lgandan hissiy bo'yoqdorlik sezilmaydi.

Matn qurshovida mazkur soʻzlar hissiy boʻyoqdorlik kasb etgan. Shoir ulardan badiiy matnning leksik-semantik, stilistik ifoda tasvirlari sifatida foydalangan. Ayni chogʻda adib ular vositasidan zid manzaralarni tasvirlagan, shu asosda hissiy tasirchan va jozibali obrazlar yaratishga muvaffaq boʻlgan.

H.Olimjonning antonimlarni qoʻllashdagi oʻziga xos mahoratini belgilashda shoirning «Baxt toʻgʻrisida» sheʼrida qoʻllanilgan antonimik munosabatdagi «*Baxt-doʻzax*», «*dunyo jlbud*», «*Baxt qora taqdir*» kabi sha matn qurshovidagi antonimiya munosabatini hosil qilgan kontekstual antonimlar nihoyatda xarakterlidir. Masalan,

Baxt axtarar va qora taqdir...

Matom va zor azob va qaygʻu...

Kunlar oʻtdi, koʻpgina odam

Taniy oldi doʻzaxki oʻtni

Dunyo dedi koʻzini ochdi-yu

Lekin koʻrdi faqat tobutni

Shodlik istar edi barchasi

Lekin kelib quchardi motom...

Misralaridagi ajratilgan tagiga chizilgan til birliklari «baxt» soʻziga qarama-qarshi qoʻyilib, oʻtmish obrazi yaratilgan.

Bu bilan adib «Baxt tuygʻusida» sheʼrida ifodalanayotgan fikr, gʻoyani yanada kuchaytirishga erishgan.

H.Olimjonning antonimlardan tasviriy vosita sifatida foydalanishi quyidagicha soʻz qoʻllash usuli bilan ajratib turadi. Bu adibning oʻzigagina xos uslubi, mahorati hisoblanadi. Masalan, quyidagi ikkita sodda gapni:

Men janglarni koʻrdim

Men tonglarni koʻrdim.

Shaklida qilsak, ular oʻquvchi hissiyotiga yo ijobiy, yo salbiy tasir qilmaydigan odatdagina axborot-xabar darajasida tasir qiladi. Chunki ularda hissiy beqarorlik yoʻq shoir bunday vaziyatda tasvirlanayotgan voqea-hodisa taqozosida antonimik munosabatga kiritilmoqchi til birligi oldida oʻxshatish ifodalovchi

so'zlar keltiradi. Ayni usulda adib asarida alohida so'z birikmasi hosil bo'ladi. Bunday so'z birikmalari H.Olimjonga xos birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yib obraz yaratish usuli.

Bu usul yuqorida eslatilgan ikki sodda gapdan benihoya tasirchandır. Masalan,

Sening ko'z ilg'amas maydonlaringda

Jahannam qo'rqajak janglarni ko'rdim.

Bir qora yov o'tgan o'rmonlaringda

***Ko'mirdan ham qora tonglarni ko'rdim.* (TA 258)**

Shoirning «Rossiya» she'ridan keltirilgan Bu baytdagi ajratilgan misrada adib qo'llagan «Jahannam qo'rqajak» «ko'mirdan ham qora» bilan birikib fashizimning yovuzligini butun qirralari bilan ochib berishdek badiiy obraz yaratishga alohida tasvir vositasi vazifasini bajargan. Shu usulda adib matnning g'oyat tasirli jihatiga erishgan. Ayni maqsadda Hamid Olimjon leksikografik manbalarda (O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati) stilistik juft yani zid manoli so'zlar sifatida izohlagan bir qator antonimlardan kontekstual antonimlar tuzishda mohirona foydalangan. **«Oqshom» va «tun»** so'zlari oldidan «qop-qora» aniqlovchisi keltirilib (qopqqora oqshom), (qopqqora tun) shaklidagi tuzilgan so'z birikmalari bir-biriga zid obrazlar yaratishga muhim uslubiy vazifani bajaruv omillaridan birga aylangan.

Demak, H.Olimjon asarlaridagi kontekstual antonimlar muayyan uslubiy vazifani bajaruvchi badiiy matnning hissiy tasirchan va kuchli leksik vositalaridir. Zero «Sheriy asarlarda bir-biriga zid fikr va hissiyotlarni ifodalashda antiteza priyomi keng qo'llaniladi. Shunga ko'ra, antonimlar hodisa va holatlarning ichki ziddiyatlarini ochishda kuchli antonimik figura sifatida muhim rol o'ynaydi».¹⁷

Bu o'rinda H.Olijonning **«Bahor», «qish», «olov», «suv»** kabi keng istemol so'zlaridan 20-yillar hayotimizda bo'lgan ziddiyatli voqea-hodisalarni haqqoniy tasvirlar maqsadida foydalanganligi takidga sazovor holatdirlar

Biz bahor qarshimizda qishlar bor,

¹⁷ Шомақсудов А. «Ўзбек тили ситилистикаси.» Тошкент «Ўқитувчи» 1983, й. 50-бет.

Biz olov oldimizda suvlar bor

Bizni ko'plar bitirmoq istaydi...

Xuddi shunday, shoir poetikasida hissiy betaraf til birliklari sanaluvchi *dog'*, *quyosh*, *chang*, *tuproq*, *to'zon*, *quduq*, *tun*, *o'g'ri*, *ko'rshapalak*, *quzg'un*, *zog'* kabi so'zlardan ham fashizmning maqsadi, qora niyatlarini xalqimiz maqsadlariga zid qo'yib tasvirlashda muhim leksik stilistik vosita sifatida foydalangan.

Hatto she'rni ikkinchi bosqichida o'zbek xalqining «Qo'rqan oldin musht ko'taradi» maqolini kiritgan ikki tizim orqasidagi fashizm ziddiyati aniq, obrazli tasvirlashda adibga nihoyat darajada qo'l kelgan. Ana shu birgina usulning o'ziyoq «G'alaba qo'shig'i» she'rning g'oyasini g'alabaga ishonch ruhining alohida badiiy tasviridir.

Masalan,

Fashizm odamzod uchun qora dog' keldi.

Quyosh turiga qarash chang bilan to'zon keldi,

O'laksa ustidagi quzg'un bilan zog' keldi,

Yolg'iz mening Vatanim baxt o'stirar bog' keldi.

Kunduzni tun deb o'ylab sartadga keldi o'g'ri

Ko'rshapalak oxiri otashga keldi, to'g'ri,

Tushar doim o'zbek maqolidir bu:

Kim avval musht ko'tarsa albatta qo'rqoq keldi. (TA 227)

Demak, H.Olijon she'riyatida antonimlar, jumladan, kontekstual antonimlar ziddiyatli fikr tushunchani qarshilantirish usulida ifodalashning muhim tasviriy vositalaridan biridir.

Shoir ana shu vosita antonimlardan bir qator uslubiy maqsadda foydalangan, ularning tipik ko'rinishlari sifatida tubandagilarni sanab o'tamiz:

1. Belgi-xususiyatni sanash va sanab ko'rsatish uslubiy maqsadida ishlatilgan:

Etti kecha, etti kun,

Etti kunduz, etti tun,...

Bunyod etti kun kezdi.

Etti qora tun kezdi (TA 427,441)

Bu misralarda ajratib ko'rsatilagan antonimik munosabatdagi so'zlar voqea-hldisalarni sanab ko'rsatish uchun qo'llanilgan folklorga xos uslubiy vositadir. Quyidagi misralardagi antonimlar belgi xususiyatni farqlash uchun qo'llanilagn.

O'tar ekan kunlar va tunlar

Ayriliqqa axtarib visol...

O'tdi tunlar o'tdi zamonlar.

2.Zidlikni tasvirlash va ifodalash uslubiy maqsadida qo'llanilgan. Bu antonimlarga xos leksik-semantik xususiyatdir.

Eski turmush bag'ri o'ygan..

Yangi turmush yo'lin ochgan

Yo'qsillarni quvontirgan,-

Ishchilarning bilagidir. (TA 8)

Azob-uqubatga eskini yopgan

Yangi yuraklarda qon yuguradir.

Keltirilgan misollarda eski, yangi lug'aviy birikmalar muayyan hodisani zid qo'yib kontrast tasvir usulida ifodalashnig leksik-semantik vositasi funktsiyasini bajargan.

3. Bazi antonimik juftlardagi so'zlarni o'z manosida tashqari qo'shimcha umumlashtirish manosini ifodalash uslubiy maqsadlarda qo'llanilgan.

Hokim edi er va ko'kda qor...

Uzoq yaqin yigit bola chol

Bu misollarda ajratilagn so'zlar antonimik juftlar hamma erda butun atrofda, barcha butun xalq manolarida matn qurshovida umumlashtirish manolarini ifodalash uchun shoir qo'llagan leksik vositalardir. Ular adib asarlarining hissiy tasirchanliginioshiruvchi uslubiy vazifani ham bajargan.

Xullas, tasvirlangan antonimlar o'zbek tilining muhim uslubiy vositalaridan biri sanaladi. H.Olijon poetik asarlarida voqealikni narsa va

hodisalning belgi-xususiyatlaridagi farqli tomonlarini tasvirlashda uslubiy vositalardan keng foydalangan.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek adabiy tilining rivojida H.Olijonning o'rni, avvalo, shoirning xalq so'zlashuv tili va adib tilini barcha imkoniyatlardan badiiy matnning tasirchanligi, obrazlilik va shu kabi uslubiy maqsadlarda leksik-semantik maqsadlarda g'oyat o'rinli va mohirona foydalanilganligida nomoyon bo'ladi:

1. *Etti kecha, etti tun. Qiriq kecha-yu qirq kunduz. So'ylab beray Zaynab va Omon sevgisidan yangi bir doston* kabi folklor uslubiga xos leksik-semantik vositalardir.

2. *Daryoda yo'q jindayin tinim.*

Men Omonga ko'ngil beruvdim

To o'lguncha o'shani devdim

Mening ham bir suygan gulim bor.

Kelasolib to'plagan eli

misralaridagi ajratilgan so'zlar bilan bir qatorda *o'lipti, ketipti, uripti* kabi shevaga xos so'zlarning ham obrazlilikni taminlash maqsadida qo'llanilganligidir.

3. Adabiy tilning rivojida H.Olijonning alohida xizmatlarida yana bir shoirning *o'rik, qo'ng'iz, erkin, ozod, yigit, qiz, juvon, Uy, joy, yotoq, tun, yosh. qari, qish, qora, ko'z, ko'r, kar* kabi hama uchun tushunarli bo'lgan, qo'llanish doirasi chegaralanmagan keng istemoldagi so'zlardan obrazlilik, tasviriylilik kabi uslubiy maqsadlarda foydalanganligidir.

Fikrimizcha ular shoirning ijodiy laboratoriyasida qayta ishlovdan, badiiy sayqol berishdan o'tgani bois badiiy matn qurshovida kitobxonni maftun qiladigan, hayajonlantiradigan badiiy zavq beradigan yoqimli musiqa vazifasini bajaragan. Nihoyat o'z navbatida adib asarlari tilining seristemolligini taminlagan. Xulosamizning isboti sifatida shoirning «o'rik gullaganda», «O'zbekiston» she'rining hamda «Zaynab va Omon» poemasiining leksikasini eslash kifoyadir.

4. H.Olijon badiiy matnda o'tmish davrga oid tushuncha, tasavvurlarini aniq ifodalash uslubiy maqsadlari taqozosida istemol doirasi chegaralangan *taqdir, qismat, sho'ro, huri, g'ilmon* kabi arxaizm va eskirgan so'zlardan, shuningdek, eskirib istemorlidan chiqqan o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlar - istorizmlardan

ham tarixiy voqea hodisalarni haqqoniy tasvirlash, tarixiy davr ruhini, milliy koloritni konkret tasvirlashning leksik stilistik vositasi sifatida foydalangan. **Yo'qsil, mushtumzo'r, mardikor, batrak, chorakor, quloq** kabi qator eskirgan so'zlarning takidlangan uslubiy maqsad taqozosi bilan ishlatilganligi xulosamizning dalidir.

5. Takidlash joizki H.Olijon poetikasida funktsional chegaralangan qatorlarni tashkil qiladigan **chektor, kazarma, komandon, poezd, tramvay, mator, zavod, stanok, tsex, injener, telefon, telegraf, musobaqa, zarbdor, vint, aktiv** kabi minglab neologizmlar, aniqrog'i, 20-30-yillar o'zbek xalqi hayotida paydo bo'lgan voqea-hodisalarning tildagi atamaları 20-30-yillar voqea hodisalarini konkret tasvirlashning leksik vositalari funktsiyasida ishlatilganligi tabiydir.

6. H.Olijonning poetik asarlarida so'zlarning shakl va mano munosabatlariga ko'ra guruhlanish turlari: omonimlar, sinonimlar va antonimlar ham leksik uslubiy vositalar sifatida qo'llanilgan.

Bu jihatdan, **yosh, yot, o't, kun, soz** kabi shakldosh so'zlarning matnda tasirchan obraz, uslubiy vosita funktsiyasida qo'llanilish xarakterlidir.

Shuningdek, amalda o'zbek imlosi, alifbosida bazi so'zlarda ikki fonema (tovushning) bir harf bilan ifodalanib kelayotganligi **o't-olov, o't-maysa** manolaridan tashqari **o'tmoq** fe'lining o'zagidan shoir omofon (tovushdosh) so'zlardan ham badiiy matnning leksik-uslubiy vositasi sifatida foydalangan.

7. H.Olijonning o'zbek adabiy tili rivojiga qo'shgan katta hissasidan biri **otash (alanga o't) olov: ish va (noz peshona, manglay) uy: (joy, yotoq, sho'h) o'ynoq** kabi qator manodosh so'zlardan uslubiy maqsadlarda foydalanganligidir. Ularning bir guruhi mavhum manoli so'zlar: **mardlik, yigitlik, aksaryat** konkret manoli so'zlardir: **yurak, ko'krak, suyak, uy joy, yotoq** kabilar sinonimk qatordagi leksik tasviriy vosita sifatida qo'llanilgan.

8. So'zlar yasaliş, so'z turkumlariga mansubligi jihatdan ham rang-barangdir. Bular asosan, ot, sifat, ravish, fe'l, turkumiga **oid otash(alanga), kuchsiz (madorsiz), sho'x (o'ynoq), o'ynardi (raqs etardi) jonlatay (so'zlatay)** kabi leksik vositalardir. Bular mano qirralari uslubiy bo'yog'i, nutqiy xoslatishi

jihatidan turlichadir. Shoir asarlarida leksik-semantik va uslubiy funktsiyada qo'llanilgan badiiy matnning leksik vositalaridir. Ayni holat H.Olijonning o'zbek tili leksikasiga qo'shgan ulishining bir ko'rinishidir.

9. Badiiy matnda qarshilantirish, yani birini ikkinchisiga yoki aksincha, zid qo'yib tasvirlash usuli taqozosida H.Olijon she'rlarida antonim so'zlar ham muhim leksik-semantik uslubiy vazifa funktsiyasida qo'llanilgan. Bu o'rinda odatdagi *yolg'on-chin, oq-qora, kecha-kunduz, botir-qo'rqq, achchiq-shirin, eski-yangi* antonimik juftliklari bilan bir qatorda H.Olijon o'zigagina xos bo'lgan «*Bahor*», «*qish*», «*olov*», «*suv*», «*sahar*», «*oqshom*» *eski turmush yangi turmush* kabi so'z va so'z birliklarining badiiy tasviri taqozosida qo'llanilganligi takidga loyiqdir.

Umuman olganda Hamid Olimjon ishlatgan so'zlar 20-30-yillar voqealarining umumlashgan badiiy tasviri ekanligi shubhasizdir. Ayni holat o'z navbatida adibning tilimiz leksikasiga qo'shgan hissasining alohida bir ko'rinishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent.: Manaviyat, 2008. Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent «Fan» 1985 11-16-b
2. Bobomurodov A. «Semrug'» poemasini maktabda o'rgatishda ko'rsatmaslik «Sovet maktabi» jurnali 1968 1-son.
3. Boboeva S. Ulkan adib poemasining leksik xususiyatlari «Sovet maktabi» jurnali 1987 1-son.
4. Boboeva S. H.Olijon poemasining leksik xususiyatlari: Toshkent 1989.
5. Donyorov X. Boboeva S. H.Olijon asarlarida sinonim so'zlar. To'plam. O'zbek tili grammatik qurilish masalalari, Samarqand, 1981 26-38-b
6. Ismatkllaev M. Poema matnini sharhlab o'qish «Sovet maktabi» jurnali 1978. 9-son.
7. Laposov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil «O'qituvchi» 1995
8. Mamurov M. «Oygul bilan Baxtiyor» poemasining badiiy xususiyatlari va tilni o'rganish «Sovet maktabi» jurnali 1972 5-son.
9. Mirtojiev M. So'zlarning shakl va mano munosabatlariga ko'ra turlari, kitob, «O'zbek tili leksikologiyasi» Toshkent «Fan» 1981 235-293-b.
10. Muhammadjanov G. Istemol doirasiga ko'ra o'zbek tili leksikasi. Kitob. «O'zbek tili leksikologiyasi» «Toshkent» «Fan» 1981 11-40-b.
11. Pirdaeva M. Dostonchiligimiz durdonalaridan biri «Sovet maktabi» jurnali 1980 2-son.
12. Suvonqulov I. Poemaning muhim qirralarini o'rganish «Sovet maktabi» jurnali 1983 9-son.
13. Tursunov U. Va boshqalar. Xozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent «O'zbekiston» 1992
14. Umarov H. shoir kechinmalarining durdonalaridan biri. «Sovet maktabi» jurnali 1989 2-son.
15. Shoabdurahmonov Sh. Va boshqalar. Xozirgi o'zbek adabiy tili 1-qism Toshkent «O'qituvchi» 1980, 110-138-betlar.

16. Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi II-qism Toshkent. «Fan» 1974.
17. O'rinov B. Qahramonlik haqida ballada «Sovet maktabi» jurnali 1989 11-son.
18. Qilichev E. Badiiy asarning leksik vositalari. Toshkent «Fan» 1982
19. Qilichev E. Matnning lingivistik tahlili. Buhoro 2000.
20. Badiiy matn H.Olimjon tanlangan asarlar O'zdamnashr Toshkent 1951. (nashrga tayyorlovchi S.Azamov)

SHARTLI QISQARTMALAR:

O'ZSIL-A.Hojiev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, «O'qituvchi» 1947.

O'TIL-O'zbek tilining izohli lug'ati I-II jild. M.1981.

HO'AT -Oli o'quv yurtlari uchun, 1980, 1992 y. darsliklar.

MUNDARIJA;

Kirish.....	
I. BOB. Hamid Olimjon asarlarining lug'aviy tarkibi.....	
1. H.Olimjonning tili va uslubi.....	
2. Keng istemoldagi so'zlarning uslubiy qo'llanilishi.....	
3. Istemol doirasi chegaralangan so'zlarning uslubiy qo'llanilishi.....	
II.BOB. Hamid Olimjon poetik asarlarida so'zlarning shakl va mano munosabatlariga ko'ra turlari.....	
1. Omonimlarning uslubiy qo'llanilishi.....	
2. Sinonimlarning uslubiy qo'llanilishi.....	
3. Antonimlarning uslubiy qo'llanilishi.....	
Umumiy xulosalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	